



**YOSHLAR ORASIDAGI DESTRUKTIV GURUHLAR
JINOYATCHILIGI VA ULARNI FOSH ETISHDA SOHAVIY
XIZMATLARNING ROLI**

*O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Turaev Eshon Amidjonovich*

Annotatsiya: Maqolada yoshlar orasidagi destruktiv guruhlar jinoyatchiligining kriminologik xususiyatlari hamda ularni fosh etishda ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining (tezkor-qidiruv, tergov, profilaktika, jamoat tartibini saqlash va kiberxavfsizlik) o'zaro hamkorligini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda sohaviy bo'linmalarning tezkor-axborot va profilaktik-taktik muvofiqlashuvi, raqamli makondagi jinoiy tahdidlarga qarshi kurashish xususiyatlari hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar jinoyatchiligi, destruktiv guruhlar, ichki ishlar organlari, sohaviy xizmatlar, o'zaro hamkorlik, jinoyatlarni fosh etish, tezkor-qidiruv faoliyati, huquqbuzarliklar profilaktikasi, tergov bo'linmalari, kiberxavfsizlik, raqamli makon, kriminal tahlil, jazoning muqarrarlighi, ruhiy immunitet, normativ-huquqiy baza.

соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

Тураев Эшон Амиджонович



ПРЕСТУПНОСТЬ ДЕСТРУКТИВНЫХ ГРУПП СРЕДИ МОЛОДЕЖИ И РОЛЬ ОТРАСЛЕВЫХ СЛУЖБ В ЕЕ РАСКРЫТИИ

Аннотация: В статье проанализированы криминологические особенности преступности деструктивных групп среди молодежи, а также вопросы организации взаимодействия отраслевых служб органов внутренних дел (оперативно-розыскных, следственных, профилактических, охраны общественного порядка и кибербезопасности) при их раскрытии. В исследовании выдвинуты научно-практические выводы по оперативно-информационной и профилактико-тактической координации отраслевых подразделений, особенностям противодействия преступным угрозам в цифровом пространстве и совершенствованию нормативно-правовой базы.

Ключевые слова: преступность молодежи, деструктивные группы, органы внутренних дел, отраслевые службы, взаимодействие, раскрытие преступлений, оперативно-розыскная деятельность, профилактика правонарушений, следственные подразделения, кибербезопасность, цифровое пространство, криминальный анализ, неотвратимость наказания, психологический иммунитет, нормативно-правовая база.

*Independent Researcher at the Academy of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan Turaev Eshon Amidjonovich*

YOUTH DESTRUCTIVE GROUP CRIME AND THE ROLE OF SECTORAL SERVICES IN ITS DETECTION



Abstract: The article analyzes the criminological characteristics of crime among youth destructive groups, as well as the organization of interaction between sectoral services of internal affairs bodies (operational-search, investigative, preventive, public order maintenance, and cybersecurity) in their detection. The research presents scientific and practical conclusions regarding the operational-information and preventive-tactical coordination of sectoral units, the specifics of countering criminal threats in the digital space, and the improvement of the regulatory framework.

Keywords: youth crime, destructive groups, internal affairs bodies, sectoral services, interaction, crime detection, operational-search activity, crime prevention, investigative units, cybersecurity, digital space, criminal analysis, inevitability of punishment, psychological immunity, regulatory framework.

Bugungi kunda jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni har xil yot va destruktiv g'oyalar ta'siridan himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va globallashuv jarayonlari yoshlar o'rtasidagi ijtimoiy va psixologik munosabatlar shaklini o'zgartiribgina qolmay, ular orasidagi jinoyatchilikning yangi, murakkab va latent (yashirin) turlari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu borada, ayniqsa, yoshlarning g'ayriijtimoiy va destruktiv xususiyatga ega bo'lgan guruhlarga uyushuvi hamda ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Destruktiv guruhlar tarkibida sodir etiladigan jinoyatlar o'zining yuqori darajadagi moslashuvchanligi, ishtirokchilar o'rtasida rollarning taqsimlanganligi, virtual va real muhitdagi tezkor harakatchanligi hamda guruhbozlik kayfiyatining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bunday jinoyatlarni



barvaqt aniqlash va fosh etish an'anaviy tezkor-qidiruv tadbirlari chegarasidan chiqib, ichki ishlar organlarining barcha sohaviy xizmatlari ya'ni tergov, tezkor-qidiruv, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash hamda kiberxavfsizlik bo'linmalarining jipslashgan va muvofiqlashtirilgan hamkorligini talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarda "hamkorlik" tushunchasining mazmun-mohiyatiga doir turlicha nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri mazkur institutsional faoliyatning muayyan qirralarini ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, A.G. Lekar ushbu tushunchaga boshqaruv nuqtai nazaridan yondashib, uni "muayyan sharoitlarda kuch, vosita va usullardan eng maqsadli foydalanish tizimi" sifatida ta'riflagan [1].

Muallifning ushbu fikriga qo'shilgan holda ta'kidlash joizki, yoshlar jinoyatchiligining dinamik xarakteri sharoitida hamkorlik faqatgina ma'lumot almashish bilan cheklanmay, balki mavjud resurslarni kriminogen vaziyatga mos ravishda tezkorlik bilan qayta taqsimlashni nazarda tutadigan boshqaruv mexanizmidir.

Shu bilan birga, D.V. Grebelskiy mazkur faoliyatning taktik jihatlariga e'tibor qaratgan holda, hamkorlikni tezkor-qidiruv vazifalarini hal etishda vositalarning "kompleks qo'llanilishi" deb izohlaydi [2]. Olimning ushbu yondashuvi bugungi kunda yoshlar jinoiy guruhlarining axborot texnologiyalaridan keng foydalanishi va latentlik darajasi yuqoriligi sharoitida o'zining dolzarbligini yanada namoyon etmoqda. Sababi, alohida olingan bir sohaviy xizmatning imkoniyatlari murakkab jinoiy tizimlarni fosh etishda yetarli bo'lmay qolmoqda.

V.A. Lukashovning fikricha esa, hamkorlikni tashkil etish bu, rahbariyat tomonidan xizmatlarning optimal faoliyat yuritishi uchun tashkiliy sharoit yaratish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonidir [3]. Bu qarash hamkorlikning sub'ektlar o'rtasidagi ierarxik va gorizontal munosabatlarini



tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, xizmatlar o'rtasidagi funksiyalar takrorlanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan jihat shundaki, A.I.Aleksandrov tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaga ko'ra, mazkur hamkorlik tizimi "jinoiy tazyiq jarayonini to'liq tezkor kuzatib borish" mexanizmi sifatida namoyon bo'lishi lozim [4]. Muallifning ushbu taklifini qo'llab-quvvatlagan holda, yoshlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishda hamkorlikni nafaqat tergovga qadar bo'lgan bosqichda, balki sud hukmi chiqqunga qadar davom etadigan uzluksiz jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Zero, jinoiy guruhlar tomonidan ko'rsatiladigan tashkiliy qarshilik aynan tergov va sud bosqichida o'zining eng yuqori nuqtasiga chiqishi amaliyotda ko'p kuzatiladi.

Yoshlar o'rtasidagi jinoiy guruhlarini fosh etishda UJQKX va sohaviy xizmatlar (tezkor qidiruv, profilaktika, kiberxavfsizlik va tergov xizmatlari) hamkorligini bir nechta asosiy shakllarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, tezkor-axborot almashinuv shakli bo'lib, bunda Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari (mahalla inspektorlari va yoshlar yetakchilari) tomonidan yetkazilgan "ko'cha"dagi norasmiy yetakchilar va yangi shakllanayotgan "mahallabay" guruhlar haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar tezkor bo'linmalar tomonidan tahlil qilinadi; mazkur jarayonda raqamli izlarni aniqlash uchun Kiberxavfsizlik bo'linmalari imkoniyatlaridan foydalanish hamkorlikning "axborot filtri" vazifasini o'taydi.

Ikkinchidan, tezkor-qidiruv tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish shakli hisoblanib, bunda tezkor xodimlari sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikda qo'shma tergov-tezkor guruhlarini tashkil etadi.

Uchinchidan, profilaktik-taktik hamkorlik shakli doirasida yoshlar orasida jinoiy submadaniyat tarqalishining oldini olish maqsadida, tezkor ma'lumotlar asosida xavf guruhiga kiruvchi yoshlarni "manzilbay" nazoratga



olish va ularni jinoiy yetakchilardan hududiy izolyatsiya qilish choralari ko'riladi.

Tadqiqotchi L.N. Kalinkovich hamkorlikni tashkiliy-funksional ta'minlash choralariga ajratishni taklif etib, bunda "reordinatsiya" aloqalarini o'rnatish muhimligini qayd etadi [5]. Bu yondashuv tergovchi va tezkor xodim o'rtasidagi munosabatlarni "ikki tomonlama boshqaruv" tamoyili asosida qurishga imkon beradi. V.P. Xomkolov va S.A.Suleymenovlar esa hamkorlikning "tezkor-qidiruv ta'minoti" jihatiga urg'u berib, buni jinoyat ishini har tomonlama va xolis tergov qilish uchun optimal sharoit yaratish tizimi deb hisoblaydilar [6].

Tadqiqotchi L.N. Kalinkovichning hamkorlikni tashkiliy-funksional ta'minlash choralariga ajratish va bunda "reordinatsiya" aloqalariga urg'u berish haqidagi yondashuvini qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash joizki, mazkur konsepsiya tergovchi va tezkor xodim o'rtasidagi munosabatlarni an'anaviy ierarxiyadan "ikki tomonlama boshqaruv" tamoyiliga o'tkazish imkonini beradi. Bu esa yoshlar o'rtasidagi guruhij jinoyatlarni fosh etishda faqatgina tergovchining topshiriqlarini bajarish emas, balki tezkor xodimning ham mustaqil taktik tashabbus ko'rsatishi uchun zarur sharoit yaratadi.

Yoshlar orasidagi guruhij jinoyatlarni fosh etishda sohaviy xizmatlar hamkorligini tashkil etish nafaqat ma'lumot almashish, balki murakkab va ko'p bosqichli tizimli jarayon sifatida talqin etiladi. Jumladan, O.D.Juk uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlikning tashkiliy asoslarini jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidayoq "qo'shma tergov-tezkor guruhlarini"ni tuzish bilan bog'laydi [7]. Muallifning fikricha, bunday guruhlar faoliyati ustidan tergovchining rahbarligi ta'minlanishi lozim bo'lsa-da, korrupsiyalashgan mansabdor shaxslarning tergov jarayoniga tashqi aralashuvini istisno qilish hamkorlikning eng muhim tashkiliy elementi hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar hamkorlikning axborot ta'minoti masalasida ham yangicha yondashuvlarni taklif etmoqdalar. Masalan, Ye.N.Yakoves



hamkorlikni “kriminal tahlil” tizimini yaratish orqali amalga oshirishni taklif etib, buni sohaviy xizmatlarning prikladnoy vazifalarini hal etishga qaratilgan maxsus choralar majmui sifatida baholaydi [8]. Bu fikrni rivojlantirgan holda, Ye.G. Beloglazov axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida “tahliliy qidiruv” metodini joriy etish, an’anaviy tezkor usullar samara bermagan hollarda sohaviy xizmatlarning kuchini aynan raqamli diagnostikaga yo’naltirishni hamkorlikning ustuvor yo’nalishi deb hisoblaydi [9].

Mualliflarning yuqoridagi fikrlariga munosabat bildirgan holda ta’kidlash joizki, yoshlar guruhiy jinoyatchiligining transformatsiyalashuvi sharoitida hamkorlik nafaqat idoraviy munosabatlarni tartibga soladi, balki I.N. Ozerov ta’kidlaganidek, tezkor xodim va tergovchining ekstremal vaziyatlardagi “kasbiy tavakkal qilish”ni huquqiy jihatdan kafolatlashni ham talab etadi [10].

Biroq, sohaviy xizmatlarning texnik va taktik jihatdan yuqori darajadagi hamkorligi jinoyatchilikka qarshi kurashda kutilgan natijani berishi uchun jazoning muqarrarligi tamoyili bilan mustahkamlanishi zarur. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotchi Sh. Izzatullaevning qayd etishicha, jazoning muqarrarligi tamoyilining yetarli darajada amalga oshirilmasligi voyaga yetmaganlar va yoshlar jinoyatchiligini keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biridir [11].

Ilmiy-nazariy munosabat shuni ko’rsatadiki, agar voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik uchun o’z vaqtida va adolatli javobgarlik choralari qo’llanilmasa, bu ularning huquqiy ongida “jazosiz qolish” illyuziyasini yuzaga keltiradi hamda ijtimoiy xavfli qilmishlarni takroran sodir etishga bo’lgan ichki moyillikni kuchaytiradi. Bu borada muallif ta’kidlaganidek, yoshlar o’rtasidagi jinoyatlarning oldini olishda nafaqat jazoning og’irligi, balki uning tezkorligi va muqarrarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, huquqiy ta’sir choralarining kechikishi yoki adolatsizligi yosh avlodning qonunga bo’lgan hurmatini susaytiradi va ularning ijtimoiy deformatsiyalashuviga sabab bo’ladi.



B.A. Umirzaqovning ta'kidlashicha, yoshlarda jinoyatchilikka qarshi immunitetni shakllantirish faqat ichki ishlar organlarining vazifasi emas, balki davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining raqamli texnologiyalar asrida yoshlar ongini destruktiv axborotlardan himoya qilish bo'yicha tizimli hamkorligini talab etadi [12]. Muallifning ushbu konseptual yondashuvi hamkorlikning institutsional xarakterini ochib beradi. Bizning fikrimizcha, raqamli axborot xurujlari kuchaygan davrda hamkorlikning bunday keng qamrovli modeli yoshlarning virtual muhitdagi xavfsizligini ta'minlashda muhim tashkiliy-huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sohaviy xizmatlar hamkorligining ichki mexanizmini tahlil qilishda professor I. Ismailovning fikrlari alohida ahamiyatga ega. Olim antikriminal immunitetni tizimli profilaktikaning natijasi sifatida baholab, umumiy va maxsus profilaktika choralari amalga oshiruvchi barcha sohaviy xizmatlarning o'zaro bog'liq holda harakat qilishi zarurligini ilgari suradi [13]. Ushbu ilmiy xulosaga munosabat bildirgan holda ta'kidlash joizki, sohaviy xizmatlarning «sinxron» faoliyati jinoyatlarni ochish bilan birga, ularni barvaqt oldini olishning tashkiliy yaxlitligini ta'minlaydi.

Shuningdek, X.N. Abdusalomova yoshlar va voyaga yetmaganlar ruhiy immunitetini mustahkamlash uchun amaliyotga bir qator asosli tashkiliy mexanizmlarni tatbiq etish va ularning ishlashini ta'minlash orqali shaxsning destruktiv g'oyalarga nisbatan bardoshlilikini oshirishni taklif etadi [14]. Tadqiqotchining ushbu taklifini qo'llab-quvvatlagan holda qo'shimcha qilish joizki, "ruhiy immunitet" tushunchasining kriminologiyaga kiritilishi shaxsning ichki qadriyatlar tizimini tashqi kriminogen ta'sirlardan himoya qilishning yangi metodologik yo'nalishini belgilab beradi degan fikrdamiz.

Olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar, mavjud empirik ma'lumotlar hamda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari faoliyatini tizimli tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda yoshlar muhitida destruktiv g'oyalarning tarqalishi, guruhbozlik va uyushgan jinoyatchilik fenomeni



tubdan transformatsiyalashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday murakkab sharoitda tezkor bo'linmalar hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi, tergov va kiberxavfsizlik bo'linmalari o'rtasidagi hamkorlikning an'anaviy tashkiliy-taktik modellari yangicha jinoiy tahdidlarga nisbatan o'z vaqtida va to'liq hajmda hujumkorlik tamoyilini ta'minlay olmayapti.

Sud-tergov va tezkor-qidiruv amaliyotining kriminologik diagnostikasi sohaviy xizmatlarning o'zaro faoliyati hamon tizimli va lokal xususiyatga ega bo'lgan amaliy muammolardan xoli emasligini yaqqol namoyon etdi. Jinoiy unsurlarning tashkiliy jihatdan jipslashuvi, moliyaviy imkoniyatlarining kengayishi hamda zamon bilan hamnafas ravishda yuqori texnologiyalarni o'zlashtirishi fonida, huquqni muhofaza qiluvchi bo'linmalar o'rtasidagi hamkorlikning sustligi jinoyatchilik dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy determinantlardan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchidan, yoshlar o'rtasidagi guruhij jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etishda ichki ishlar organlarining tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning bugungi holati tizimli yondashuvning yetishmasligi bilan tavsiflanadi; ya'ni mazkur sohaviy xizmatlar yagona mexanizm sifatida birlashib harakat qilish o'rniga, idoraviy jihatdan bir-biridan ajralgan holda faoliyat yuritmoqda va ular o'rtasidagi tezkor axborot almashinuvi jarayoni muvofiqlashtirilmaganligicha qolmoqda.

Shuningdek, amaliyotda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining eng murakkab muammolaridan biri sifatida normativ-huquqiy bazaning tarqoqligi kuzatilmoqda. Tadqiqotchi Ye.P.Obiskalov o'zining ilmiy ishlarida umumkriminal xususiyatga ega bo'lgan uyushgan jinoyatchilikka qarshi tezkor-qidiruv tadbirlari orqali to'siq qo'yishda idoraviy va xizmatlararo hamkorlikni huquqiy tartibga solish masalalarini chuqur tahlil qilgan [15].

Olimning ilmiy xulosalariga ko'ra, hozirgi kunda sohaviy xizmatlarning hamkorligini tartibga soluvchi normativ hujjatlar tizimlashtirilmagan bo'lib, ular alohida-alohida vazirliklar, idoralar va muayyan ma'muriy tuzilmalar



kesimida fragmentar xususiyat kasb etmoqda. Ye.P. Obiskalov bunday huquqiy tarqoqlik sohaviy xizmatlar o'rtasida funksional vakolatlarning bir-birini takrorlashiga, idoraviy to'qnashuvlarning yuzaga kelishiga hamda eng dolzarb tezkor-qidiruv masalalarida xizmatlararo hamkorlik mexanizmlarining institutsional jihatdan falajlanishiga olib kelishini ilmiy asoslab bergan.

Ikkinchidan, yoshlar muhitidagi guruhii jinoyatlarning an'anaviy muhitdan yopiq messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar va virtual makonga transformatsiyalashuvi jinoyatlarning keskin "virtuallashuvi"ga hamda ularning yashirinlik darajasi ortishiga sabab bo'lmoqda. Jinoiy unsurlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan hujumkorlik uslubida foydalanilishi sharoitida, tezkor bo'linmalar va sohaviy xizmatlarning texnik ta'minoti hamda raqamli dalillarni haqiqiyligini tekshirish imkoniyatlari o'rtasida tizimli nomutanosiblik kuzatilmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yoshlar orasidagi destruktiv guruhlar jinoyatchiligining zamonaviy transformatsiyasi va ularning raqamli makonga ko'chishi ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining an'anaviy ish uslublarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Tezkor-qidiruv, tergov, huquqbuzarliklar profilaktikasi va kiberxavfsizlik bo'linmalarining muvofiqlashtirilgan va tizimli hamkorligisiz latent xususiyatga ega bo'lgan guruhii jinoyatlarni barvaqt aniqlash va fosh etish mumkin emas.

Mazkur faoliyat samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, sohaviy xizmatlar o'rtasidagi axborot almashinuvini kriminal tahlil vositalari orqali avtomatlashtirish, hamkorlikni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazadagi tarqoqlikni bartaraf etish hamda jazoning muqarrarligi tamoyilini qat'iy ta'minlash lozim. Shu bilan birga, faqatgina tezkor va tergov choralari bilan cheklanib qolmasdan, yoshlar o'rtasida destruktiv axborot xurujlariga qarshi mustahkam ruhiy va antikriminal immunitetni shakllantirishga qaratilgan yaxlit profilaktik mexanizmni qaror toptirish davr talabidir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лекарь А.Г. Основы организации предотвращения преступлений органами внутренних дел. – М., 1972.
2. Гребельский Д.В. Теоретические основы и организационно-правовые проблемы оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел. – М., 1977.
3. Лукашов В.А. Теоретические основы организации оперативно-розыскной деятельности органов внутренних дел. – К., 1991.
4. Александров А.И. Оперативно-розыскное сопровождение уголовного преследования организованных преступных групп: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Владимир, 2006.
5. Калинин Л.Н. Организация предупреждения преступлений органами внутренних дел. – М., 1982.
6. Хомколов В.П. Организация управления в оперативно-розыскной деятельности: Теоретические и прикладные аспекты. – М., 1999.
7. Жук О.Д. Борьба с организованной преступностью в Российской Федерации (по материалам оперативно-розыскной и уголовно-процессуальной деятельности в Западно-Сибирском и других регионах России): Дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 1998. – 165 с.
8. Яковец Е.Н. Основы информационно-аналитического обеспечения оперативно-розыскной деятельности. – М.: Юрлитинформ, 2009. – С. 115.
9. Белоглазов Е.Г. Использование информационных технологий в оперативно-розыскной деятельности. – М.: Юрлитинформ, 2005. – С. 42.
10. Озеров И.Н. Категория риска в оперативно-розыскной деятельности: Теоретико-правовой аспект: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Белгород, 2005. – С. 58.



11. Izzatullaev Sh. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish va bunga imkon berayotgan omillarni bartaraf qilish // Elita.uz. – 2024. – № 2 (2). – B. 76.
12. Umirzaqov B. A. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy va yakka profilaktikasi tizimi // Jamoat xavfsizligi paradigmasi. – Toshkent, 2026. – B. 112.
13. Ismailov I. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi // Kriminologiya. Darslik. Maxsus qism. – Toshkent, 2015. – B. 15.
14. Abdusalomova X.N. Voyaga yetmaganlar va yoshlarda huquqbuzarlikka qarshi immunitetni shakllantirishning kriminologik jihatlari // Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali. – 2024. – B. 935.
15. Обыскалов Е. П. О некоторых аспектах правового регулирования ведомственного и межведомственного взаимодействия в сфере оперативно-розыскного противодействия организованной преступности общеуголовной направленности // Наука, культура, образование: актуальные вопросы, достижения и инновации. Сборник статей II Международной научно-практической конференции. – Пенза, 2021. – С. 54–57.